

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

G‘AFFOROV NOSIRJON NODIRJON O‘G‘LI

**13-14 YOSHLI BOKSCHILARNING JISMONIY VA PSIXOLOGIK
TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

G‘afforov Nosirjon Nodirjon o‘g‘li

13-14 yoshli bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini rivojlantirish
metodikasi..... 3

Гаффоров Носиржон Нодиржон угли

Методика развития физической и психологической подготовки боксеров
13-14 лет..... 31

Gafforov Nosirjon Nodirjon ugli

Methodology for developing the physical and psychological preparation of
13-14 year old boxers..... 63

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 69

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

G‘AFFOROV NOSIRJON NODIRJON O‘G‘LI

**13-14 YOSHLI BOKSCHILARNING JISMONIY VA PSIXOLOGIK
TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped6733 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.jtsiti.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Tajibayev Soyib Samijonovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	Ishtayev Javlon Mavlonboyevich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Usmonov Mansur Qurbonmurotovich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Samarqand davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. Manzil: 111709, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O‘zbekiston ko‘chasi, Olimpiya shaharchasi. Tel.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, Veb-sayt: www.djtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat sport akademiyasi “Ma’muriy” bino 1-qavat, 146-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

D.Y.Egamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muassasalarda bokschilar darajasini takomillashtirish yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, malakali sportchilarni tayyorlashda shaxsiy va kasbiy sifatlari, pedagogik hamda psixologik modeli, shaxsga xos didaktik, kommunikativlik, boshqaruvchanlik qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, sportchilar faoliyatining individual uslubi, boshqaruv tiplari sportda pedagogik mahorati hamda uning sport texnikasi, o‘rganish usullari bo‘yicha malakaga ega bo‘lishi, mashg‘ulot jarayonini va o‘z-o‘zini nazorat qila olishi hamda oldindan jarayonni baholashni to‘g‘ri tashkil etish qobiliyati ilmiy-uslubiy asoslari, bo‘lg‘usi bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Jahonda yosh bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini rivojlantirish va ularning pedagogik mahoratlarini oshirish bo‘yicha kompleks yondashuv zarur. Ayniqsa, yosh bokschilar bilan ishlovchi murabbiylar uchun kasbiy kompetentligini oshirish, ularning o‘quv-metodik bilimlari va psixologik tayyorlik darajasini yuqori bosqichga olib chiqish – sportchining har tomonlama shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, sportchilarni tayyorlov jarayonida zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or pedagogik va psixologik metodikalar asosida ta‘lim berish, ularning psixologik barqarorlik, motivatsiyani oshirish, va sportchilarning individual xususiyatlariga mos yondashuvni shakllantirish borasidagi malakasini kuchaytirishni talab qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, yosh bokschilarning jismoniy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, psixik barqarorlikni shakllantirish va musobaqaviy tayyorgarlik jarayonida samaradorlikka erishish imkonini beradi. Shu boisdan ham, sportchilar tayyorgarligini samarali tashkil etishda murabbiylar uchun metodik va amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqilishi va faoliyatga joriy etilishi dolzarb masala hisoblanadi.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportga, ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirish va ommaviylashtirishga ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. “Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirish va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish”¹ kabi vazifalar belgilab berilgan. “Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga” yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishda alohida vazifalar belgilangan. Bokschilar faoliyatining ijodiy komponentlari, uning insoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlik holati, kasbiy faoliyatdagi ma‘naviy va axloqiy munosabatlar, inson qobiliyatlari va maxsus qobiliyatlarni sportchilar faoliyatning samaradorligiga ta‘siri, shaxslararo munosabatlarning

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <http://lex.uz>

mashg'ulot faoliyatidagi ahamiyati, murabbiy va sportchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni kabi masalalar qisman yoritib o'tilgan. Bokschilar faoliyatining ijtimoiy mazmunini, ularni jismoniy va psixologik jihatdan tayyorlashning metodikalarini tubdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2018 yil 5 martdagi PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda bir qator tadqiqotchi va olimlar tomonidan sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, sportchilarning psixologik tayyorgarligi, mashg'ulot kompetentligi, sportchilarga xos fazilatlar, sportchilar tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish borasida e'tiborga molik izlanishlar olib borilgan. Bunda asosan mashg'ulot faoliyatida sportchilarni tayyorlashning pedagogik va psixologik masalalariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchi olimlardan E.G'.G'oziev, Z.G.Gapparov, M.M.Mamatov, Y.N.Masharipovlar muammoning sof psixologik jihatlariga va musobaqa muhiti omillari orqali yoritishga keng e'tibor qaratishgan. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish ishlari R.D.Xalmuxamedov, F.A.Kerimov, Sh.X.Xonkeldiyev, A.Abdullayev va R.S.Salomov, S.S.Tajibayevlar² jismoniy tarbiya o'qituvchilarining malakasini oshirish mazmuni va sifatiga davlat talablarini takomillashtirishning tashkiliy-metodik jihatlarini T.S.Usmanxodjayev, A.N.Abdiyev jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasb mahoratini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari N.T.To'xtaboyev tomonidan pedagogik jihatdan yetarlicha tadqiq etilgan.

²Халмухамедов Р.Д., Технология построения после соревновательного этапа борсов-курешистов. 2009.- № 7. С. - 38-43; Керимов Ф.А. Инновационная направленность в использовании методов математической статистики с целью дифференцированного отселекционирования физической подготовленности спортсменов. Олимпийская литература. Наука новые технологии и инновации № 9, 2015. С. - 45-49; Xonkeldiev Sh.X., Abdullaev A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. Darslik. O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, 2005. – 235 b; Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: «ITA-PRESS», 2014. - 296 b; Tajibayev S.S. "Yosh bokschilarni tayyorlash tizimida harakatli o'yinlarni qo'llash metodikasi" Ped.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiya. Toshkent 2017. - 26 b. Tajibayev S.S. O'smir yakka kurashchilarning kompleks tayyorgarligida xarakterli o'yinlarni qo'llash metodikasini ilmiy-pedagogik asoslash. P.f.d.(DSc), dis. avtoreferati, Chirchiq 2019. - 76 b.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi yetakchi pedagog va psixolog olimlardan I.P.Degtyarev, T.V.Kornilova, S.A.Kuznesov, I.S.Dyatlovskaya, A.A.Derkach, A.A.Isaev, Ya.A.Korx, A.A.Lalayan, Ye.P.Ilin, G.V.Lojkin, M.V.Sanayalar³ sportchilar faoliyati va sportchi shaxsining o'ziga xos psixologik xususiyatlari borasida ilmiy izlanishlar olib borgan. Ushbu tadqiqotlar orqali mashg'ulot kompetentlik, sportchilarga xos fazilatlar, sportchilarning psixologik tayyorgarligi, sportchi shaxsi va uning jismoniy sifatlari, pedagogik faoliyatining psixologik strukturasi, loyihalash qobiliyati, kasbiy ahamiyatli sifatlari, mashg'ulot faoliyatining individual uslubi, boshqaruv tiplari, sportda pedagogik mahorat va uning pedagogik, psixologik jihatlari kabi qator masalalar keng tadqiq etilgan.

Yuqoridagilardan farqli o'laroq, faoliyat muammosining e'tiborga molik tadqiqotlari A.G.Asmolov, Ye.A.Klimov, A.A.Krilov, A.N.Leontev, G.S.Nikiforov, G.V.Suxodolskiy, V.D.Shadrikovlarning ilmiy konpsepsiyalari mazmunida, shaxs tushunchasi tahlili bilan bog'liq tadqiqotlar B.G.Ananev, V.L.Marishuk, B.C.Merlin, Yu.P.Platonov, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin ilmiy izlanishlarida, yoshlar sportida trener faoliyatining psixologik jihatlari Ye.S.Richard, L.Frank, Lew Hardy, Graham Jones, Daniel Gould, Syuzan Xanraxan va Mett B. Andersenlar⁴ tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlardan farqli o'laroq, mazkur tadqiqot ishi sportchilarni tayyorlashda jismoniy va psixologik jihatdan yondashilganligi bilan alohida ajralib turadi. Tadqiqotchilar asosan, sportchilar faoliyati uchun shart sanalgan mahorat, mashg'ulot kompetentlik, tashabbuskorlik va psixologik o'zini-o'zi rivojlantirish kabi jihatlarga e'tibor qaratishgan. Biroq, muammoning aynan biz tomondan tadqiq etilayotgan jihati ya'ni bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik va psixologik masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu bois, mazkur tadqiqot ishi, pedagogika fanlari sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar uchun yangi nazariy-amaliy imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Yuqorida qayd etilgan barcha xorijiy va mahalliy tadqiqotlar mazmuni dissertatsiya ishimizning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining ALM-202306161313 raqamli "Sport ta'lim muassasalarida seleksiya, saralash, bashorat qilish va oliy

³Дегтярев И.П. Бокс. Учебник для ин-тов физической культуры. Физкультура и спорт.-М.: 1979. С. 90-105. Базеян А.М. Техничко-тактическая подготовка боксеров-юниоров на основе учета показателей их соревновательной: Автореф. дис. канд. пед. наук. – М., 1990. С. – 23. Корнилова Т.В. "Принцип неопределенности в психологии: основания и проблемы". Опубликовано в научном журнале. Статья. 2001. С – 205. Кузнесов С.А. «Изучение функций лингвокреативных единиц в различных типах дискурса» Научный журнал «Когнитивные исследования языка», выпуск 3(54), часть I. 2009. С. -816.

⁴Richard Ye. Smit va Frank L. Sport Psychology for Youth Coaches: Lanham, Maryland, USA ISBN:978-1442217157. 2018-years. Page –168. Lew Hardy, Graham Jones va Daniel Gould. "Understanding Psychological Preparation for Sport: Wiley ISBN: 9780471957874 1996. P -346. Petros Ekekakis. A Guide for Health-Behavioral Research". Cambridge University Press. Cambridge, Great Britan. ISBN: 9781107648203 2013. P- 226. Syuzan Xanraxan va Mett B. Andersen. Doing exercise psychology. Human Kinetics. ISBN: 978-0736073288 2016. P-328.

sport yutuqlarini rivojlanish monitoringini joriy qilish uchun raqamli texnologiyalarni yaratish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tadqiqotning maqsadi 13-14 yoshli bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini rivojlantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yosh bokschilarning yillik tayyorgarlik jarayonida jismoniy holati va tayyorgarlik darajasining o‘zgarish dinamikasini aniqlash hamda ularning rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda baholash;

13–14 yoshli bokschilarning yillik tayyorgarlik jarayonida xotira ko‘rsatkichlari o‘zgarish dinamikasini aniqlash hamda ularning sport faoliyatidagi ahamiyatini monitoring qilish;

yosh bokschilarning yillik tayyorgarlik jarayonida idrok aniqligi ko‘rsatkichlari o‘zgarish dinamikasini aniqlash hamda bu ko‘rsatkichlarning musobaqa faoliyatidagi ahamiyatini baholash;

13–14 yoshli bokschilarning yillik tayyorgarlik jarayonida fikrlash ko‘rsatkichlari o‘zgarish dinamikasini aniqlash hamda ularning sport mantiqiy va ijobiy qobiliyatlarni egallash jarayonidagi ahamiyatini nazorat qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida 13-14 yoshli bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni etib belgilandi.

Tadqiqot predmetini 13-14 yoshli bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini rivojlantirish omillari, modeli va mexanizmi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish, pedagogik kuzatuv, anketa va so‘rovnomalar, taqqoslash, psixodiagnostika, pedagogik tajriba va matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

13–14 yoshli bokschilarning yillik tayyorgarlik jarayonida jismoniy sifatlar rivojlanishining umumiy dinamik modellarini (jismoniy va psixologik, jismoniy va texnik-taktik kabi) ishlab chiqish orqali tezkorlik va chidamlilik sifatleri o‘rtasida yosh davriga xos bo‘lgan ko‘rsatkichlarining dinamik uyg‘unligi yaxshilangan;

yosh bokschilarning yillik tayyorgarlik siklida jismoniy sifatlar (tezkorlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik va moslashuvchanlik) rivojlanishining umumiy modellarini sportchilarning yosh davriga xos kognitiv yuklamalariga (mexanik, mantiqiy, qisqa va uzoq muddatli xotira) ko‘rsatkichlarning dinamik uyg‘unligini ta’minlash hisobiga jismoniy va psixologik tayyorgarlikning kompleks tizimi takomillashtirilgan;

o‘quv mashg‘ulot guruhida shug‘ullanuvchi bokschilarning yillik tayyorgarlik tizimi doirasida idrok aniqligi ko‘rsatkichlarining sport mashg‘ulotlari mazmuni va intensivligiga bog‘liq holda o‘zgarish tendensiyasini elementlar, bo‘shliqlar hamda vaqt barqarorligi ko‘rsatkichlarining musobaqa faoliyatidagi muvaffaqiyat darajasi bilan uzviy bog‘liqligi rivojlantirilgan;

13-14 yoshdagi bokschilarning yillik tayyorgarlik bosqichida fikrlash ko‘rsatkichlarini rivojlanishida texnika va taktikasini o‘zlashtirish darajasi bilan o‘zaro bog‘liqligini mantiqiy, ijodiy va tezkor fikrlash jarayonlarining musobaqa

sharoitida qaror qabul qilish tezligi hamda samaradorligiga bevosita ta'siri hisobiga kognitiv jarayonlarning sifat darajasi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

13-14 yoshli bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini shakllantirishga oid "Psixologiya va sport psixologiyasi", "Sport psixologiyasi", "Sport psixodiagnostikasi", "Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati", "Pedagogning professional kompetentligi va mahorati", "Sport faoliyati psixologiyasi" kabi fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun foydalanilgan;

oliy ta'lim muassasalarida jismoniy va psixologik tayyorgarlikga oid ma'ruzalar va seminar mashg'ulotlarini tayyorlashda hamda olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari, davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari, bolalar-o'smirlar sport maktablarining murabbiylar malakasini oshirish tizimida foydalanilgan;

yosh bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish orqali ulardagi jismoniy va psixologik faoliyatini belgilovchi munosabatlarning pedagogik-psixologik sifatlari va ularning samaradorligi pedagogik tajribada isbotlangan;

13-14 yoshli bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligi faoliyatiga ta'sir qiluvchi pedagogik-psixologik omillarni takomillashtirish bo'yicha amaliy jihatdan qo'llanilishi mumkin bo'lgan diagnostik usullarning samaradorligi pedagogik tajribada isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuvlar, yosh bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi chet el hamda respublikamiz olimlarining fikr-mulohazalariga asoslanganligi, to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, natijalarning empirik jihatdan asoslanganligi va reprezentativligi bilan alohida xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya jarayonida amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, jismoniy tarbiya va sport ta'limi muassasalarida boks sport turi bilan shug'ullanuvchi yosh bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirishga oid nazariy hamda metodologik jihatdan yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan bo'lib, unda sport psixologiyasi, kasbiy psixologiya, jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyoti, pedagogik mahorat va pedagogik-psixologiya tarmoqlari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Qo'lga kiritilgan natijalar ushbu muammoning metodologik asoslarini takomillashuviga va bokschilarda jismoniy va psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishda foydalanishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalari tizimida sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini oshirishda, sportchilar faoliyatiga to'siq bo'luvchi turli pedagogik-psixologik omillarni bartaraf qilishda, kasbiy xususiyatlar, funksional-irodaviy harakatlar barqarorligini va individual-psixologik xususiyatlarni takomillashtirishda samara beradi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va amaliy tavsiyalardan,

sport sohasidagi murabbiylar, jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va sport psixologlari kasbiy faoliyati davomida keng foydalanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yosh bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida:

13–14 yoshli bokschilarning yillik tayyorgarlik jarayonida jismoniy sifatlar rivojlanishining umumiy dinamik modellarini (jismoniy va psixologik, jismoniy va texnik-taktik kabi) ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar Chirchiq shahar sport maktabidagi bokschilarning mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025 yil 16-iyuldagi 02-16/7594-son ma'lumotnomasi). Natijada, 13-14 yoshli bokschilarning turnikda tortilish "kuch" sifati 10,2% ga, xotira ko'rsatkichlari dinamikasi (xotira turlari bo'yicha ko'rish) 11,4% ga yaxshilangan;

yosh bokschilarning yillik tayyorgarlik siklida jismoniy sifatlar (tezkorlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik va moslashuvchanlik) rivojlanishining umumiy modellarini sportchilarning yosh davriga xos kognitiv yuklamalariga (mexanik, mantiqiy, qisqa va uzoq muddatli xotira) ko'rsatkichlarning dinamik uyg'unligini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazidagi bokschilarning mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025 yil 16-iyuldagi 02-16/7594-son ma'lumotnomasi). Natijada, 13-14 yoshli bokschilarning 3x10 moksimon yugurish "chaqqonlik" sifati 13,1% ga, mexanik xotira qobiliyati 10,3% ga, xotirada bo'shliqlar bo'yicha qobiliyatlaridagi o'zgarishlar 12,9% ga, ijodiy fikrlash natijalari esa 14,1% ga yaxshilangan;

o'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi bokschilarning yillik tayyorgarlik tizimi doirasida idrok aniqligi ko'rsatkichlarining sport mashg'ulotlari mazmuni va intensivligiga bog'liq holda o'zgarish tendensiyasini elementlar, bo'shliqlar hamda vaqt barqarorligi bo'yicha taklif va tavsiyalar Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazidagi bokschilarning mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025 yil 16-iyuldagi 02-16/7594-son ma'lumotnomasi). Natijada, 13-14 yoshli bokschilarning 12 daqiqa davomida yugurish "chidamlilik" sifati 14,1% ga, xotira ko'rsatkichlari dinamikasi (qisqa muddatli xotira) 9,9% ga, uzoq muddatli xotira qobiliyati 13,8% ga, vaqtni idrok qilish qobilyati esa 10,6% ga yaxshilangan;

13-14 yoshdagi bokschilarning yillik tayyorgarlik bosqichida fikrlash ko'rsatkichlarini rivojlanishida texnika va taktikasini o'zlashtirish darajasi bilan o'zaro bog'liqligini mantiqiy, ijodiy va tezkor fikrlash jarayonlarining musobaqa sharoitida qaror qabul qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar Chirchiq shahar sport maktabidagi bokschilarning mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025 yil 16-iyuldagi 02-16/7594-son ma'lumotnomasi). Natijada, fikrlash turlarini tahlil qilish orqali ularning kognitiv qobiliyatlaridagi o'zgarishlar 12,2% ga, ijodiy, mantiqiy va fikrlash qobiliyati esa 11,8% ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 3 ta xorij va 5 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy-uslubiy ishlar jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 3 ta maqola (3 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish qismi, to'rtta bob, xulosalar va amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati, ilovalardan iborat bo'lib, matni 124 sahifani tashkil etadi, 12 ta jadval va ishning amaliyotga joriy qilish dalolatnomalaridan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Yosh bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligining zamonaviy muammolari”** deb nomlangan birinchi bobida olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida va bolalar-o'smirlar sport maktablarida yosh sportchilarning (bokschilarning) psixologik tayyorgarligining zamonaviy muammolari, yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligining zamonaviy muammolari, sportchilardagi xotira, idrok, fikrlash qobiliyatining rivojlanish dinamikasi bo'yicha dolzarb muammolar tahlilining ilmiy-pedagogik jihatlari yuzasidan va yosh bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini rivojlantirish orqali harakat faolligini oshirish yuzasidan ma'lumotlar bayon etilgan.

Yosh bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligining harakatlari to'g'ri rivojlanishini, dastlabki tayyorgarlik bosqichidanoq tizimli nazorat qilishni tashkil qilish orqali, sportchilarning barcha jismoniy va psixologik ko'rsatkichlarini to'g'ri rivojlanishiga, hamda ushbu yoshdagi bokschilarning xotira, idrok, fikrlash qobiliyatining rivojlanish hususiyatlari ko'rsatkichlarining jadal rivojlanishiga, tizimli tarzda nazorat qilib borish orqali erishishi mumkinligi aniqlandi.

Yetakchi olimlar, jumladan E.L.Deci, M.R.Griffin, W.S.Grolnick, B.K.Howard, M.Miserandino, K.A.Prusak, J.Sallis, C.E.Thompson, M.T.Wright va boshqa ko'plab olimlarning mavzu bo'yicha olib borgan tadqiqotlari yetarli darajada keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, ko'plab muammolar va masalalar

hal qilinganiga qaramasdan, boks sport turi misolida hali ko‘plab tadqiqotlar yetarlicha olib borilmaganini ta’kidlash lozim.

Boks sport turi bilan mashg‘ulot olib boruvchi sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligi harakatlari ko‘rsatkichlarining rivojlanishini nazorat qilishda ayni vaqtda zamon talablariga javob bera oladigan metodikadan foydalanish, yangi metodika ishlab chiqish, yuqori texnologik imkoniyatlarga ega bo‘lgan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ularning natijalarini amaliyotga keng tadbiiq etish zarurati mavjud. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida jismoniy tarbiya sohasida amaliy va nazariy taraflama faoliyat olib borayotgan soha xodimlari o‘rtasida keng hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, rivojlangan davlatlarning jismoniy tarbiya sohasini keng miqyosda o‘rganish va tajribalar almashinish jarayonini yo‘lga qo‘yish zaruriy mavjud metodlarni takomillashtirish va yangilarini o‘zlashtirish zarur.

Amaliyot jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bir qator qulayliklarga va samaradorlikni oshirish xususiyatlariga ega. Masalan: ortiqcha vaqt olmasligi va vaqtdan yutish, olingan natijalarining aniqligi, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan taklif hamda tavsiyalarni berish, imkoniyatni yaratishi kabi qulayliklar shular jumlasidan.

Yosh bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligining zamonaviy muammolarni hal etishda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda nazorat qilish sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligi harakatlari rivojlanishiga va sportchilarning sport faoliyatida yuqori natijalariga erishishlariga, qolaversa, yuqori jismoniy ko‘rsatkichli sportchilar bo‘lib shakllanishlariga ijobiy ta’sir qiluvchi eng muhim omillardandir.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari va uni tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning uslublari, ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, anketa so‘rovnoma, pedagogik testlash, umumiy jismoniy tayyorgarligini aniqlash testlari, pulsometriya, antropometriya usul, instrumental usul, pedagogik tajriba, tadqiqotning tashkil qilinishi to‘g‘risidaga ma’lumotlar to‘liq bayon qilinadi.

I bosqich (2023) – analitik va metodik bosqich mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy – uslubiy materiallari tahlil qilindi va qayta ishlandi, taqdiqot ishining mavzusi, maqsadi, gipotezasi, vazifalari, ishlab chiqish, ilmiy farazni yaratish masalalariga bag‘ishlangan.

II bosqich (2024) – rejalashtirish va amalga oshirish bosqichi. Psixologik tayyorgarlikdan foydalangan holda yosh bokschilarning jismoniy holatini yaxshilovchi mashg‘ulotlarni ishlab chiqish, sinovdan o‘tkazish va takomillashtirish amalga oshirildi. Yosh bokschilarning mashg‘ulot va mashg‘ulotdan tashqari psixologik tayyorgarlikdan foydalangan holda mashqlar bajarishi amaliyotda tadbiiq qilish yo‘llari o‘rganildi.

Ushbu bosqichda tajriba o‘tkazildi. Tajribada jismoniy tayyorgarlik darajasi, funksional holat va sog‘liqni saqlash ko‘rsatkichlarini baholash bo‘yicha dastlabki test o‘tkazildi. Yig‘ilgan materiallar tajriba guruhlarida mashg‘ulot (trenirofka) uslubining mazmunini va asosini aniqlash uchun asos bo‘lib hizmat qiladi.

III bosqich (2025) – nazorat va tekshirish bosqichi pedagogik tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqotda Toshkent viloyati Chirchiq shahar 1-bolalar-o‘smirlar sport maktabi, Chirchiq Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi va Respublika Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida 13-14 yoshli jami 90 nafar yosh bokschilar qatnashdilar. Tadqiqotning barcha qatnashchilari (n=90) ikki guruhga: (“TG”) tajriba va (“NG”) nazorat guruhlari ishtirok etdi. Tajriba o‘quv mashg‘ulotlari shaklida o‘tkazildi. Tajribaning boshida va oxirida sportchilarning jismoniy salomatligi, funksional holati va jismoniy tayyorgarligi darajasi sinovdan o‘tkazildi, bu esa sportchilarning mashg‘ulotlar vaqtida jismoniy va psixologik tayyorgarlikdan foydalangan holda mashg‘ulotlarining samaradorligini baholashga imkon berdi.

IV bosqich (2025) – olingan ma’lumotlarni tizimlashtirish, qayta ishlash, tahlil qilish va talqin qilish, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, informatsion ko‘rsatkichlar va mezonlarni aniqlash, xulosalar, amaliy tavsiyalar va ishlarni rasmiylashtirish ishlari olib borildi.

Dissertatsiyaning **“13-14 yoshli bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligining yillik dinamikasi”** deb nomlangan uchinchi bobida 13-14 yoshli bokschilarning jismoniy tayyorgarligining yillik dinamikasi, xotira ko‘rsatkichlari, idrok aniqligi ko‘rsatkichlari va fikrlash ko‘rsatkichlarini dinamikasi yuzasidan ma’lumotlar aks ettirilgan.

Jismoniy tarbiya va sport inson salomatligi va umumiy jismoniy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yoshlar orasida sport mashqlari, ayniqsa, chidamlilikni talab qiluvchi sport turlari bilan shug‘ullanish muhim ahamiyatga ega. Yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini o‘rganish va baholash ularning sportdagi muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tadqiqot 13-14 yoshli bokschilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi yosh sportchilarning turli bosqichlardagi jismoniy ko‘rsatkichlarini baholash va ularning rivojlanishini o‘rganishdan iborat. Turli jismoniy mashqlar orqali olingan natijalarni tahlil qilish orqali yosh sportchilarning umumiy tayyorgarligi, tezkorligi, chidamliligi va boshqa muhim jismoniy xususiyatlari haqida ma’lumotlar olindi.

3×10 mokkisimon yugurish (s) vaqti ham NG (8,15±0,34) va TG (8,17±0,36) o‘rtasida birinchi bosqichda deyarli bir xil bo‘lgan. Yugurish vaqti II bosqichda ham (NG 8,10±0,36, TG 8,09±0,34) deyarli o‘zgarmagan. Bu ko‘rsatkichda ham statistik farqlar ahamiyatli emas ($p>0,05$). (1-jadvalga qarang).

Boks janglari ko‘pincha bir necha raunddan iborat bo‘lib, har bir raunda jismoniy jihatdan juda kuchli harakatlar amalga oshiriladi. Umumiy chidamlilik bokschining uzoq vaqt davomida yuqori intensivlikda harakat qilishini ta’minlaydi. Mutaxassislar bokschilarning umumiy chidamlilik darajasini o‘rganib, uning uzoq muddatli sinovlarda yaxshi natijalarga erishish uchun zarur ekanini ko‘rsatishgan.

12 daqiqa yugurish ko‘rsatkichlari NG (2308,08±11,35) va TG (2310,10±14,24) guruhlarida deyarli bir xil bo‘lgan. Har ikki guruhda ham II bosqichda ko‘rsatkichlar yaxshilangan, ammo farqlar statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p>0,05$). IV bosqichda NG 2332,32±14,3, TG 2342,42±10,5 ko‘rsatkichlarni qayd etgan.

Turgan joyidan zunlikka sakrash (sm) natijalari ham har ikki guruhda deyarli bir xil bo'lgan. I bosqichda NG 182,5±9,5 sm natija ko'rsatgan bo'lsa, TGda 181,4±7,81 sm. IV bosqichda NG natijasi 188,9±6,3 sm, TG natijasi esa 191,5±9,55 sm. Bu ko'rsatkichlarda ham farqlar statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p>0,05$).

Turnikda tortilish (marta) natijalari NG va TG o'rtasida ham bir xil bo'lgan. I bosqichda NG 5,8±0,45 marta, TG esa 6,0±0,39 marta tortilishni ko'rsatgan. IV bosqichda NG 9,0±0,28 marta, TG esa 10,0±0,22 marta tortilishni ko'rsatgan. Farqlar statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p>0,05$).

1-jadval

13-14 yoshli bokschilarning jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari (n=44)

№	Testlar	Guruh/ mat-stat	I bosqich	II bosqich	III bosqich	IV bosqich
1.	100 m.ga yugurish (s)	NG	14,80±0,34	14,71±0,24	14,58±0,51	14,51±0,43
		TG	14,84±0,38	14,69±0,37	14,57±0,43	14,53±0,24
		t	1,24	1,72	1,34	1,15
		p	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05
2.	3×10 m. mokkisimon yugurish (s)	NG	8,15±0,34	8,10±0,36	8,05±0,22	8,02±0,41
		TG	8,17±0,36	8,09±0,34	8,04±0,41	8,01±0,36
		t	1,24	1,72	1,34	1,15
		p	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05
3.	12 daqiqa yugurish (m)	NG	2308,08±11,35	2315,15±16,5	2319,19±19,0	2332,32±14,3
		TG	2310,10±14,24	2317,17±11,3	2327,37±14,9	2342,42±10,5
		t	0,97	1,64	1,03	1,97
		p	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05
4.	Turgan joyidan zunlikka sakrash (sm)	NG	182,5±9,5	182,7±9,3	185,2±7,3	188,9±6,3
		TG	181,4±7,81	183,9±4,8	187,7±6,75	191,5±9,55
		t	1,11	1,32	1,45	1,64
		p	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05
5.	Turnikda tortilish (marta)	NG	5,8±0,45	6,4±0,45	7,5±0,39	9,0±0,28
		TG	6,0±0,39	6,6±0,33	7,9±0,31	10,0±0,22
		t	1,97	1,51	1,74	1,68
		p	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05
6.	Tik turgan xolatida oldinga egilish (sm)	NG	6,0±0,46	6,6±0,54	7,1±0,44	8,22±0,37
		TG	7,1±0,34	7,3±0,44	7,45±0,30	8,38±0,25
		t	0,84	1,99	1,31	1,94
		p	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05

Xotira sport natijalarida muhim rol o'ynaydi, ayniqsa, boks kabi sport turlarida tezkor qaror qabul qilish, texnikalarni eslab qolish va strategik fikrlash juda muhimdir. Vizual xotira, mexanik xotira, mantiqiy fikrlash, shuningdek, qisqa va uzoq muddatli xotira kabi kognitiv qobiliyatlar sportchilarga ringda dinamik vaziyatlarga samarali javob berishga yordam beradi. Ayniqsa, 13-14 yoshdagi yosh

sportchilar uchun ushbu xotira turlarining rivojlanishi ularning sportdagi umumiy yutuqlariga asos bo‘ladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

13-14 yoshli bokschilarning nazorat va tajriba guruhlaridagi xotira ko‘rsatkichlarining dinamikasi (n=44)

Xotira turlari	Guruh/ Mat- statistika	Pedagogik tadqiqot bosqichlari			
		Birinchi bosqich	Ikkinchi bosqich	Uchinchi bosqich	To‘rtinchi bosqich
Vizual xotira	NG	3,04±0,35	3,17±0,31	3,31±0,27	3,64±0,36
	TG	3,06±0,24	3,24±0,14	3,29±0,17	3,67±0,34
	t	0,71	0,72	0,66	0,84
	P	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05
Mexanik xotira	NG	2,61±0,14	2,68±0,14	2,71±0,20	2,85±0,27
	TG	2,57±0,21	2,65±0,16	2,72±0,17	2,84±0,34
	t	0,87	0,77	0,64	0,49
	P	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05
Mantiqiy xotira	NG	2,55±0,26	2,67±0,17	2,74±0,27	2,89±0,34
	TG	2,54±0,27	2,6±0,16	2,77±0,34	2,86±0,3
	t	0,67	0,74	0,68	0,41
	P	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05
Qisqa muddatli xotira	NG	2,42±0,34	2,54±0,24	2,63±0,27	2,75±0,64
	TG	2,44±0,32	2,52±0,32	2,67±0,34	2,74±0,73
	t	0,91	0,57	0,81	0,47
	P	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05
Uzoq muddatli xotira	NG	2,28±0,31	2,33±0,13	2,37±0,34	2,45±0,62
	TG	2,27±0,27	2,34±0,11	2,39±0,27	2,47±0,25
	t	0,64	0,33	0,61	0,34
	P	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05

Ushbu tadqiqot 13-14 yoshli bokschilarning nazorat (NG) va tajriba (TG) guruhlarida xotira dinamikasini o‘rganadi va bu jarayonda beshta turli xotira shakllariga - vizual, mexanik, mantiqiy, qisqa muddatli va uzoq muddatli - diqqat qaratadi. Tadqiqot samaradorligi va kognitiv rivojlanishning ijobiy ta‘sirini namoyon qilish maqsadida statistika ahamiyati t-qiyamatlar va p-qiyamatlar orqali tahlil qilinadi.

13–14 yoshli bokschilarning vizual xotirasi natijalari o‘rganildi: NG (nazorat guruh) 3,04±0,35 dan 3,64±0,36 ga o‘sdi. EG (tajriba guruh) 3,06±0,34 dan 3,67±0,34 ga o‘sdi. Statistika ko‘rsatkichlari: p>0,05 bo‘lib, sezilarli o‘zgarishlar yo‘q; t-0,66 dan 0,84 gacha. Olimlarning qarashlari: Vizual xotira boksda juda muhim, chunki u raqibning harakati kabi vizual ma‘lumotlarni tezda anglash imkonini beradi. Ikkala guruhning natijalari sezilarli farq qilmasligi, an’anaviy trening usullari tajriba usullarga nisbatan deyarli shunchalik samarali ekanligini ko‘rsatadi. Kelajakdagi tadqiqotlar, kurashning haqiqiy holatlarini yaxshiroq

tasvirlashga yordam beradigan virtual haqiqat (VR) treningi kabi ilg'or strategiyalarni qo'llashga qaratilishi mumkin.

13–14 yoshli bokschilarning mexanik xotira natijalari tahlili: NG (nazorat guruh) rivojlanishi: $2,85 \pm 0,27$ dan $2,61 \pm 0,14$ ga. EG (tajriba guruh) rivojlanishi: $2,84 \pm 0,34$ dan $2,57 \pm 0,21$ ga o'sdi. t-qiymlari 0,49 dan 0,87 gacha bo'lib, p-qiymlari 0,05 dan kattaroq bo'lganligi, statistik ma'lumotlarda sezilarli farqlar yo'qligini ko'rsatadi. Ilmiy nuqtai nazardan: mexanik xotira shakllanishi minimal bo'lishi mumkin, bu boksha kabi dinamik sportlarda qo'llash uchun eslab qolishning ahamiyati kamayishini ko'rsatadi. Garchi bu xotira turida raqibga qarshi tezda moslashuv yuzaga kelmasligi mumkin, ammo u texnik mashqlarni bajarishda foydalidir. Agar trening mantiqiy va vizual xotiraga ko'proq e'tibor qaratilsa, bu situatsion va strategik ongni yaxshilashi mumkin.

Tadqiqotda 13-14 yoshli bokschilarning idrok aniqligi ko'rsatkichlarining dinamikasi o'rganildi. Bu yosh guruhida bokschilarning psixologik va fiziologik holatlari, jismoniy va ma'naviy rivojlanishini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Boks sport turi bo'lib, u nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki psixik jarayonlarni ham talab qiladi. Bokschi o'z harakatlarini aniq va tezkor amalga oshirish uchun yuqori darajadagi idrok aniqligiga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun, idrok aniqligi ko'rsatkichlarining dinamikasiga oid tadqiqotlar bokschilarning psixofiziologik rivojlanishini tushunishga yordam beradi. (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Nazorat va tajriba guruhlarda shug'ullanuvchi 13-14 yoshli bokschilarning idrok aniqligi ko'rsatkichlari dinamikasi (n=44)

Idrok turlari	Guruh/ mat-stat	Pedagogik tadqiqot bosqichlari			
		I bosqich	II bosqich	III bosqich	IV bosqich
Elementlar	NG	$3,10 \pm 0,24$	$3,24 \pm 0,23$	$3,31 \pm 0,20$	$3,47 \pm 0,29$
	TG	$3,12 \pm 0,18$	$3,28 \pm 0,24$	$3,29 \pm 0,17$	$3,51 \pm 0,21$
	t	0,65	0,72	0,57	0,34
	P	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05
Bo'shliqlar	NG	$2,60 \pm 0,14$	$2,71 \pm 0,14$	$2,82 \pm 0,20$	$2,97 \pm 0,27$
	TG	$2,58 \pm 0,21$	$2,73 \pm 0,16$	$2,83 \pm 0,17$	$2,98 \pm 0,34$
	t	0,87	1,04	1,31	1,41
	P	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05
Vaqt	NG	$2,14 \pm 0,17$	$2,24 \pm 0,13$	$2,35 \pm 0,29$	$2,84 \pm 0,27$
	TG	$2,16 \pm 0,14$	$2,26 \pm 0,11$	$2,37 \pm 0,24$	$2,87 \pm 0,34$
	t	0,11	0,15	0,34	0,36
	P	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05

Tadqiqotda 44 nafar bokschi ishtirok etgan bo'lib, ularning ikki guruhi - nazorat (NG) va tajriba (TG) guruhlariga bo'lingan. Har ikki guruhning idrok aniqligi ko'rsatkichlari pedagogik tadqiqot bosqichlari (I-IV) davomida o'rganilgan. Barcha bosqichlar bo'yicha ma'lumotlar to'planib, ularning statistik tahlili amalga oshirildi.

Idrok aniqligi elementlari: Idrok aniqligi bokschilarning harakatlari va reaksiyalari, shuningdek, sport o‘yinlaridagi qaror qabul qilish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Idrok aniqligi natijalari har bir bosqichda ijobiy dinamikani ko‘rsatmoqda. Bu, xuddi bokschilarning psixofiziologik holatining rivojlanishini ko‘rsatadi, chunki bu yoshdagi sportchilarda psixomotor qobiliyatlarida jiddiy o‘zgarishlar bo‘lishi kutilgan.

Fikr yuritish, mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilish kabi kognitiv qobiliyatlar sportchilarning chiqishdagi natijalarida muhim rol o‘ynaydi, ayniqsa, bokschilar uchun, chunki ular tez va samarali tarzda o‘zgaruvchan vaziyatlarga javob berishlari kerak. Yosh sportchilar uchun, xususan 13-14 yoshdagilar uchun kognitiv rivojlanish ularning umumiy o‘ssishi uchun, ring ichida va tashqarisida, juda muhimdir. Ushbu rivojlanish davrida, bokschilar o‘zlarining fikrlash ko‘nikmalarini, jumladan diqqat, muammo yechish, strategik rejalashtirish va reaksiyalar vaqtini rivojlantirishlari kerak (4-jadvalga qarang).

4-jadval

13-14 yoshli bokschilarni nazorat va tajriba guruhlariga ajratilgan fikrlash ko‘rsatkichlarining dinamikasi (n=44)

Fikrlash turlari	Guruh/ Mat-stat	Pedagogik tadqiqot bosqichlari			
		Birinchi bosqich	Ikkinchi bosqich	Uchinchi bosqich	To‘rtinchi bosqich
Mantiqiy	TG	2,85±0,34	2,97±0,24	3,12±0,28	3,34±0,75
	NG	2,82±0,51	2,94±0,37	3,15±0,24	3,41±0,64
	t	0,87	0,24	0,64	0,41
	P	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05
Kreativ	TG	2,64±0,34	2,70±0,21	2,84±0,24	2,95±0,62
	NG	2,62±0,41	2,71±0,22	2,85±0,24	2,94±0,61
	t	0,89	0,15	0,66	0,24
	p	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05

Ikkala guruhdagi mantiqiy fikrlash to‘rt bosqich davomida taraqqiyotni ko‘rsatdi, bu esa kognitiv rivojlanishning sekin-asta amalga oshishini aks ettiradi. Nazorat guruhi (NG) birinchi bosqichda 2,85±0,34 dan to‘rtinchi bosqichda 3,34±0,75 ga qadar rivojlandi. Shunga o‘xshab, tajriba guruhi (TG) ham shu davr davomida 2,82±0,51 dan 3,41±0,64 ga ko‘tarildi. Tajriba guruhida oxirgi bosqichlarda o‘rtacha qiymatlar biroz yuqori bo‘lishiga qaramay, ikkala guruh o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p > 0,05$). Bu, an’anaviy va tajriba trening usullari mantiqiy fikrlashga o‘xshash ta’sir ko‘rsatganini anglatadi.

Ijodiy fikrlash ham har ikkala guruhda barqaror, lekin o‘zgarishni ko‘rsatdi. Nazorat guruhi (NG) birinchi bosqichda 2,64±0,34 dan to‘rtinchi bosqichda 2,95±0,62 ga ko‘tarildi, tajriba guruhi (TG) esa 2,62±0,41 dan 2,94±0,61 gacha bo‘lgan o‘xshash bir o‘ssishni namoyish etdi. Barcha bosqichlar uchun p-qiymatlar 0,05 dan yuqori bo‘lib, ikkala guruh o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa tajriba trening usullari ushbu yoshdagi bokschilarda ijodkorlikni rivojlantirishda sezilarli ustunlik bermaganligini bildiradi.

Ishlab chiqilgan 1 oylik tayyorgarlik modelining asosiy maqsadi sportchilarning yangi yillik tayyorgarlik bosqichiga moslashuvi, umumiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish, psixologik barqarorlikni shakllantirish va texnik ko'nikmalarni asta-sekin mustahkamlashdan iborat. Ushbu davrda mashg'ulotlar yuklamasi yuqori emas, asosiy urg'u kuch, chidamlilik va tezkorlikni rivojlantirishga qaratiladi. Shu bilan birga, dam olish va tiklanishga ham yetarlicha vaqt ajratiladi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

13–14 yoshli bokschilar uchun 1 oylik tayyorgarlik modeli

Haftaning kuni	Mashg'ulot yo'nalishi	Mashqlar kompleksi	Vaqt
Dushanba	Jismoniy + Psixologik	3×12 press, 3×10 turnik, 3×15 sakrash; 10 daqiqa diqqat testlari (kartochka, signallarga javob)	16:00–18:00
Seshanba	Jismoniy + Texnik	2–3 km yugurish (past tempda); 5×2 daqiqa zarba asoslari (chap-o'ng kombinatsiya, blok)	16:00–18:00
Chorshanba	Jismoniy + Psixologik	Sprint 8×60 m; oyoq ishlash (narvoncha, yon harakatlar); 15 daqiqa reaksiya mashqlari (signal asosida qaror qabul qilish)	16:00–18:00
Payshanba	Faol dam olish	Suzish 20 daqiqa; stretching 15 daqiqa; yengil stol tennisi; nafas olish mashqlari (5–10 daqiqa)	16:00–17:30
Juma	Texnik-taktik + Psixologik	Zarba kombinatsiyalari (6×3 daqiqa); oyoq ishlash bilan sparring (3×2 daqiqa); motivatsion suhbat 15 daqiqa	16:00–18:00
Shanba	Jismoniy + Psixologik	Jamoaviy sport o'yinlari (futbol 30 daqiqa, voleybol 20 daqiqa); reaksiya mashqlari (trener ishorasi asosida zarba)	10:00–12:00
Yakshanba	Tiklanish	To'liq dam olish: passiv relaksatsiya, uyqu, oila bilan vaqt, sog'lom ovqatlanish	—

Umumiy yuklama (1 oyda):

- Jismoniy tayyorgarlik – 40 soat atrofida (kuch, chidamlilik, tezkorlik).
- Texnik-taktik tayyorgarlik – 15–18 soat.
- Psixologik mashqlar – 8–10 soat.
- Dam olish va tiklanish – 25% vaqt.

Raqam/harflarni yodlash va takrorlash mashqi yosh bokschilarning quyi darajadagi mantiqiy va mexanik xotirasini rivojlantiradi. Raqamlar va harflarni qisqa muddatda eslab qolish orqali sportchi tez fikrlash, axborotni tez qabul qilish va qayta ishlash ko'nikmasini hosil qiladi. Mashq bosqichma-bosqich

murakkablashtirilib, oxirgi bosqichda teskari tartibda qayta aytish kognitiv yuklamani oshiradi. Bu, o'z navbatida, musobaqa sharoitidagi tezkor qaror qabul qilish malakasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (6-jadvalga e'tibor bering).

6-jadval

13–14 yoshli bokschilarning xotira ko'rsatkichlari dinamikasini rivojlantirish bo'yicha yillik mashqlar kompleksi

T/r	Mashq turi	1–3 oy	4–6 oy	7–9 oy	10–12 oy
1	Raqam/harflarni yodlash va takrorlash	3–5 ta raqamni 5 soniyada eslab, takrorlash	5–6 ta raqam/harfni 5–6 soniyada yodlash	7 ta belgidan iborat kombinatsiyani 6 soniyada yodlash	8 ta belgi (raqam+harf) 6 soniyada yodlash va teskari tartibda aytish
2	Harakatlar ketma-ketligini eslab qolish	3–4 ta zarba kombinatsiyasini yodlash va takrorlash	4–5 ta zarbali kombo + oyoq harakati	6 ta harakatli kombinatsiya (zarbalar, qadam tashlash)	7–8 ta murakkab kombinatsiyani mustaqil takrorlash
3	Vizual xotira mashqi	Rasmdagi 5 ta detalni 10 soniyada eslab qolish	7 ta detal, eslab, yo'qolganini aniqlash	8–9 detal – murakkab fon bilan	10+ detal, raqamlar va harflar aralash
4	Ovozli topshiriqqa asoslangan harakatlar	Murabbiy aytgan 2 ta topshiriqni bajarish (masalan: "chap – oldinga")	3–4 ta ketma-ket topshiriqni yodlash va bajarish	Murabbiy aytgan raqamga mos zarba kombinatsiyasini bajarish	4–5 topshiriqni eslab, to'g'ri ketma-ketlikda bajarish
5	Reaksiya + xotira mashqlari (kombinatsiyalangan)	Rangli kartochkaga qarab zarba turi bajarish (masalan: qizil – jab)	3 xil rang – 3 xil zarba kombinatsiyasi	Rang + ovoz orqali murakkab signal – 4 xil harakat	Aralash signallar orqali 5 xil harakatni yodlab, real sharoitda qo'llash

13–14 yoshli bokschilarning xotira ko'rsatkichlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar kompleksi ularning psixologik tayyorgarligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Bu mashqlar sportchilarning diqqat, eslab qolish, tez fikrlash va qaror qabul qilish kabi kognitiv ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli, vizual va eshitish asosidagi topshiriqlar orqali ularning xotira imkoniyatlari kengayadi. Harakat va signalni uyg'unlashtirish esa ringdagi murakkab vaziyatlarga moslashuvchanlikni oshiradi. Mazkur metodika sportchilarni nafaqat jismonan, balki aqliy va emotsional jihatdan ham musobaqalarga tayyorlaydi. Mashqlar yosh xususiyatlariga mos va o'yin shaklida bo'lgani sababli samaradorlik yuqori bo'ladi. Shunday qilib, xotirani rivojlantiruvchi mashqlar bokschilarning umumiy tayyorgarligi tizimida muhim bo'g'in hisoblanadi. (7-jadvalga e'tibor bering).

Rangli signalga qarab harakat qilish mashqi orqali sportchilarning rangli signallarni tez va aniq farqlashi, ularga muvofiq tezkor harakatni tanlashi rivojlanadi. Ranglar va harakatlar o‘rtasidagi moslikni mustahkamlash orqali asosiy shartli reflekslar shakllanadi. Oxirgi bosqichda 4–5 xil signalni farqlash mashqi orqali sportchining murakkab vaziyatlardagi reaksiya aniqligi kuchayadi.

Qisqa vaqtli kuzatuv (vizual xotira va idrok). Bu mashq bolalarning kuzatuvchanlik, tez anglash, va xotirada saqlab qolish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Vizual elementlar qisqa vaqtga ko‘rsatiladi va sportchi yo‘qolgan yoki o‘zgarishni aniqlashi kerak. Bu jarayon miyadagi vizual eslab qolish va farqlash mexanizmlarini faol harakatga keltiradi. Mashqning murakkabligi elementlar soni va fon murakkabligiga qarab oshiriladi.

7-jadval

13–14 yoshli bokschilarning idrok aniqligi ko‘rsatkichlari dinamikasini rivojlantirish bo‘yicha yillik mashqlar kompleksi

T/r	Mashq turi	1–3 oy	4–6 oy	7–9 oy	10–12 oy
1	Vizual ajratish mashqi	5 ta o‘xshash belgidan farq qiladigan 1 ta belgini topish (rasmida)	8 ta belgidan farqlisini tez topish	10+ belgidan 2 farqlisini aniqlash	Murakkab fonli rasmda kichik tafovutlarni aniqlash
2	Rangli signalga qarab harakat qilish	Qizil – to‘xtash, yashil – harakat, 2 signalli o‘yin	3 rang – 3 xil harakat (masalan, qizil – orqaga, ko‘k – chap)	Rang + zarba mosligi (har bir rang ma’lum zarba turi)	4–5 rangli signal bilan 5 xil harakatni aniq farqlash
3	Qisqa vaqtli kuzatuv	3 ta shakl 5 soniyaga ko‘rsatiladi – qaysi biri yo‘qolganini aniqlash	4–5 ta shakl, murakkab fon bilan	Har xil shakl + rang kombinatsiyalarini eslab aniqlash	Harakatlanuvchi obyektlar ichidan farqli 1 tasini aniqlash
4	Zarba aniqligi bo‘yicha topshiriq	Belgilangan nuqtaga 10 ta zarba – aniqligi baholanadi	12–15 ta zarba – tezlik va aniqlik kombinatsiyasi	Raqamlangan nuqtalarga murakkab ketma-ketlikda zarba berish	Harakatlanuvchi nishonga zarbalarni aniq yo‘naltirish
5	Murabbiy ishorasiga qarab yo‘nalishni aniqlash	2 xil ishora – 2 xil harakat (chap/ong)	3–4 xil ishora – qadam, zarba, egilish kombinatsiyasi	Ishora + raqamli signal asosida kombinatsiyani to‘g‘ri tanlash	Ishora + tovush + vizual signal orqali kompleks yo‘nalishni aniqlash

Zarba aniqligi bo‘yicha topshiriq mashqi texnik tayyorgarlik bilan bir qatorda ko‘z–qo‘l muvofiqligini ham rivojlantiradi. Zarba aniq joyga yo‘naltirilishi lozim, bu esa propriozeptiv idrok (harakatni sezish) tizimiga bog‘liq. Oxirgi bosqichda harakatlanuvchi nishonlar qo‘llanilishi orqali ko‘rish idroki va zarba aniqligi real jang vaziyatiga moslashtiriladi. Bu mashq tezkor reaksiya va aniqlikni sinxronlashtirishga xizmat qiladi.

Murabbiy ishorasiga qarab yoʻnalishni aniqlash, murabbiy tomonidan berilgan ishorani eshitish, koʻrish va tushunish orqali sportchi zarur harakatni bajaradi. Bu esa koʻp sensorli idrokni shakllantiradi. Dastlab ikki ishora boʻlsa, keyinchalik vizual, eshitish va raqamli signallar birgalikda beriladi. Ushbu mashq orqali sportchining analiz-sintez, yaʼni murakkab axborotni ajratish va ularga mos harakatni bajarish koʻnikmasi rivojlanadi.

Mashqlar kompleksi yosh bokschilarning idrok aniqligi, eʼtibor barqarorligi, qaror qabul qilish tezligi kabi ruhiy-psixologik tayyorgarlik jihatlarini shakllantiradi. Mashqlar yildan yilga murakkablashtirilib, sport sharoitidagi real vaziyatlarga yaqinlashtiriladi. Bu yondashuv nafaqat psixik holatni mustahkamlaydi, balki texnik-taktik qarorlarning toʻgʻriligini va tezligini ham oshiradi.

8-jadval

13–14 yoshli bokschilarning fikrlash koʻrsatkichlari dinamikasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar kompleksi

T/r	Mashq turi	1–3 oy	4–6 oy	7–9 oy	10–12 oy
1	Mantiqiy ketma-ketlikni topish	3–4 elementli ketma-ketlikni davom ettirish	5–6 elementdan iborat mantiqiy bogʻliqlikni topish	2 xil ketma-ketlikni taqqoslab, farqlarni aniqlash	Murakkab shakllar va raqamli mantiqni tez tahlil qilish
2	"Agar... boʻlsa" sharti asosida javob topish	Oddiy vaziyat: "Agar zarba oʻngda boʻlsa – orqaga qadam"	2–3 shartli holat asosida harakat tanlash	Qiyin vaziyat: bir nechta shartli holatga tez javob berish	Kompleks jang stsenariysi asosida toʻgʻri qaror qabul qilish
3	Muammoni hal qilish topshiriqlari	Oddiy sport vaziyatidan chiqish yoʻlini aytish (ogʻzaki)	Raqib kuchli zarba bersa – qanday harakat qilish haqida fikrlash	Qisqa muddatda strategiyani oʻzgartirishga oid mashq	Raqib taktikasi asosida qarorlarni tahlil qilish va almashtirish
4	Zarba kombinatsiyasini tuzish (ijodiy fikrlash)	2–3 zarbadan iborat kombinatsiyani mustaqil tuzish	Raqibning holatiga nisbatan kombinatsiya yaratish	Harakat davomida zarbani oʻzgartirish	Tezda 3–4 variantli kombinatsiyalarni tuzish (reaktiv fikrlash)
5	Taqqoslash va farqlash (analiz-sintez)	2 turdagi zarbani farqlash (masalan, jab va cross)	3 xil zarba va holatni solishtirish	Zarbalarini raqibning vaziyatiga qarab tanlash	Taktik uslublarni tahlil qilib, strategiyani oʻzgartirishga qaror berish

Mantiqiy ketma-ketlikni topish mashq sportchilarda mantiqiy fikrlash va abstrakt tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ketma-ketlikdagi raqamlar, harflar yoki geometrik shakllarning davom ettirilishini topish orqali bolalar aloqalarni aniqlash, tartibga solish va xulosaga kelish koʻnikmalarini shakllantiradilar. Bosqichlar boʻyicha elementlar sonining oshirilishi sportchining

fikrlash hajmi va murakkab ma'lumotni qayta ishlash salohiyatini oshiradi (8-jadvalga e'tibor bering).

“Agar... bo'lsa” sharti asosida javob topish. Bu mashq orqali bokschilar shartli fikrlash va ko'p variantli qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. "Agar" predikativ strukturasi sportchining muqobil natijalarni oldindan ko'ra bilishi va turli holatlarga mos ravishda harakat rejasini tuzishiga yordam beradi. Kompleks jang stsenariylari asosidagi topshiriqlar ularni real musobaqa vaziyatlariga tayyorlaydi va fikr moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Muammoni hal qilish topshiriqlari sport faoliyatida muammoni aniqlash va unga yechim topish bokschilarning intellektual moslashuvchanlik va kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Ushbu mashqlarda sportchi noan'anaviy holatlarda tezda taktik yechim topishga o'rganadi. Bu mashq jarayoni orqali ularning mustaqil fikr yuritish, vaziyat tahlili va oqilona qaror chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi.

Zarba kombinatsiyasini tuzish (ijodiy fikrlash) Bokschining o'z harakatlarini mustaqil tarzda loyihalashga o'rgatish uning ijodiy fikrlash, texnik va taktik tafakkurini rivojlantiradi. Kombinatsiyalarni sharoitga qarab o'zgartirish mashqlari sportchining harakatlar repertuarini kengaytiradi va uning strategik fikrlash darajasini oshiradi. Bu esa uni ringda oldindan belgilangan sxemalardan chiqib, moslashuvchan fikrlashga o'rgatadi.

Taqqoslash va farqlash (analiz–sintez) sportchining asosiy kognitiv qurolidir. Zarba turlarini, raqib uslublarini taqqoslash va ularni farqlash orqali sportchi tez va aniq tahlil qilish, to'g'ri qaror chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu mashq orqali ular detallarni tahlil qilish va harakatlarni sintez qilish malakasini rivojlantiradi. Ayniqsa, musobaqa sharoitida bu jihatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“13-14 yoshli bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini rivojlantirishda ishlab chiqilgan metodika samaradorligi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida nazorat va tajriba guruhida shug'ullanuvchi 13-14 yoshli bokschilarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasi, xotira ko'rsatkichlari, idrok aniqligi hamda fikrlash ko'rsatkichlari dinamikasi (pedagogik tajriba) yuzasidan ma'lumotlari keltirilgan (9-jadvalga e'tibor bering).

Jadvalda qayd etilgan natijalardan shuni ko'rishimiz mumkinki, yosh bokschilar yil boshlanishida ikki guruhga (nazorat va tajriba guruhlari) ajratib olindi. Ulardan olingan test natijalari bir-biridan farq qilgan. Demak, yillik tayyorgarlik siklining boshida tekshiriluvchi nazorat guruhi bokschilar jismoniy jihatdan tahminan tajriba guruhi bokschilari bilan bir xil tayyorgarlikka ega ekanliklari aniqlandi, lekin qisman farq mavjud bo'lgan.

TG bokschilari kuchli chidamlilikni namoyon qilib, raqibga nisbatan yuqori faollik saqlashga qodir bo'ladi. Bu ularga ko'proq kombinatsiyalarni qo'llash va yuqori darajadagi harakat tezligini saqlash imkonini beradi. Tajriba davridan so'ng TG natijalari chidamlilik bo'yicha yuqori samaradorlikka erishganini ko'rsatadi. Bu ishlab chiqilgan metodikaning chidamlilik rivojlantirishda muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi.

Turgan joyidan uzunlikka sakrash testi sportchining portlashli kuchini va pastki tana mushaklarining rivojlanish darajasini baholaydi. Boksda bu jismoniy

sifat hujum qilish, harakatlanish va tezkor kombinatsiyalar bajarishda katta ahamiyatga ega. Tajriba davridan soʻng: NG: $188,9 \pm 17,3$ sm ($V=9,15\%$). TG: $200,5 \pm 18,5$ sm ($V=9,22\%$). Test statistikasi: $t=2,64$; $p<0,05$. (TG natijalari NGga nisbatan sezilarli darajada yaxshilangan). Turgan joyidan uzunlikka sakrash natijalari boksning pastki tana mushaklarining portlashlilikini koʻrsatadi. Boksda portlashlilik hujum yoki himoya harakatlarini tezkor bajarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, sakrashlar va tezkor qadamlar boksning harakat holatini oʻzgartirishda yoki raqibdan uzoqlashishda qoʻllaniladi.

9-jadval

Nazorat va tajriba guruhida shugʻullanuvchi 13-14 yoshli bokschilarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (n=44)

№	Testlar	Guruh/ mat- stat	TB	V%	TO	V%
1.	100 m.ga yugurish (s)	NG	$14,80 \pm 0,98$	6,08	$14,51 \pm 0,97$	6,68
		TG	$14,84 \pm 0,87$	5,86	$14,01 \pm 0,94$	6,70
		t	0,34		2,64	
		P	$>0,05$		$<0,05$	
2.	3×10 m. mokkisimon yugurish (s)	NG	$8,15 \pm 0,84$	10,30	$8,02 \pm 0,64$	7,98
		TG	$8,13 \pm 0,92$	11,31	$7,14 \pm 0,81$	11,34
		t	0,37		2,15	
		P	$>0,05$		$<0,05$	
3.	12 daqiqa yugurish (m)	NG	$2308,08 \pm 11,35$	9,18	$2332,32 \pm 21,2$	9,10
		TG	$2310,10 \pm 14,24$	8,70	$2454,54 \pm 21,1$	8,61
		t	0,31		2,97	
		P	$>0,05$		$<0,05$	
4.	Turgan joyidan uzunlikka sakrash (sm)	NG	$181,5 \pm 18,1$	9,97	$188,9 \pm 17,3$	9,15
		TG	$180,1 \pm 17,1$	9,50	$200,5 \pm 18,5$	9,22
		t	0,34		2,64	
		P	$>0,05$		$<0,05$	
5.	Turnikda tortilish (marta)	NG	$5,8 \pm 0,45$	7,75	$8,0 \pm 0,81$	10,12
		TG	$6,0 \pm 0,39$	6,5	$11,0 \pm 0,75$	6,81
		t	1,97		3,68	
		P	$>0,05$		$<0,01$	
6.	Tik turgan xolatida oldinga egilish (sm)	NG	$6,0 \pm 0,85$	14,16	$8,22 \pm 0,75$	9,12
		TG	$7,1 \pm 0,77$	10,84	$10,14 \pm 0,67$	6,60
		t	1,84		2,94	
		P	$>0,05$		$<0,01$	

Izoh: NG – nazorat guruhi, TG – tajriba guruhi, TB – tajriba boshida, TO – tajriba ohirida.

Tik turgan holatda oldinga egilish testi sportchining harakat choʻzilish qobiliyati va qoʻshimcha harakat doirasini baholash uchun qoʻllaniladi. Bu koʻrsatkich boksda sportchining harakatlarning samaradorligini va jarohatlardan himoyalani darajasini belgilovchi omillardan biridir. Tajribadan oldin NG: $6,0 \pm 0,85$ sm ($V=14,16\%$). TG: $7,1 \pm 0,77$ sm ($V=10,84\%$). Test statistikasi: $t=1,84$; $p>0,05$ (Guruhlar oʻrtasida sezilarli farq aniqlanmadi). Tajribadan keyin NG:

8,22±0,75 sm (V=9,12%). TG: 10,14±0,67 sm (V=6,60%). Test statistikasi: t=2,94; p<0,01 (TG natijalari NGga nisbatan sezilarli darajada yaxshilangan).

Mazkur tadqiqotda nazorat (NG) va tajriba (TG) guruhlarida shug‘ullanuvchi yosh bokschilarning xotira qobiliyatlarini dinamikasi tahlil qilindi. Bu jarayonda ishlab chiqilgan metodikaning xotira rivojlanishiga ta’siri o‘rganildi (10-jadvalga e’tibor bering).

10-jadval

Nazorat va tajriba guruhida shug‘ullanuvchi 13-14 yoshli bokschilarning xotira ko‘rsatkichlari dinamikasi (n=44)

Xotira turlari	Guruh/ mat-stat	TB	V,%	TO	V,%
Ko‘rish	NG	3,12±0,42	13,46	3,62±0,36	9,94
	TG	3,14±0,45	14,33	4,15±0,34	8,20
	t	0,84		3,14	
	P	>0,05		<0,01	
Mexanik	NG	2,56±0,24	9,34	2,82±0,34	12,05
	TG	2,55±0,32	12,54	2,98±0,37	12,41
	t	0,87		2,37	
	P	>0,05		<0,05	
Mantiqiy	NG	2,55±0,26	10,19	2,90±0,34	11,74
	TG	2,54±0,27	10,62	3,37±0,45	13,35
	t	0,67		3,07	
	P	>0,05		<0,01	
Qisqa muddatli	NG	2,42±0,36	14,87	2,74±0,47	17,15
	TG	2,44±0,37	15,16	2,98±0,51	17,11
	t	0,91		2,26	
	P	>0,05		<0,05	
Uzoq muddatli	NG	2,28±0,64	28,07	2,45±0,62	25,06
	TG	2,27±0,67	29,51	2,60±0,48	18,46
	t	0,34		2,26	
	P	>0,05		<0,05	

13-14 yoshli bokschilarda ko‘rish xotirasini tahlil qilganda: Nazorat guruhi: Tajriba boshida: 3,12±0,42 (V=13,46%). Tajriba oxirida: 3,62±0,36 (V=9,94%). t=0,84; p>0,05. Variatsiya koeffitsienti: 13,46% dan 9,94% ga kamaydi. Tajriba guruhi: Tajriba boshida: 3,14±0,45 (V=14,33%). Tajriba oxirida: 4,15±0,34 (V=8,20%). t=3,14; p<0,01.

13-14 yoshli bokschilarda mexanik xotirasining natijalarini tahlil qilamiz: NG: Tajriba boshida: 2,56±0,24 (V=9,34%). Tajriba oxirida: 2,82±0,34 (V=12,05%). t=0,87; p>0,05. Variatsiya koeffitsienti: 9,34% dan 12,05% ga ko‘tarildi. TG: Tajriba boshida: 2,55±0,32 (V=12,54%). Tajriba oxirida: 2,98±0,37 (V=12,41%). t=2,37; p<0,05. Variatsiya koeffitsienti: 12,54% dan 12,41% ga kamaydi.

13-14 yoshli bokschilarda uzoq muddatli xotirasining natijalarini tahlil quyidagicha bo'ldi: NG: Tajriba boshida: $2,28 \pm 0,64$ ($V=28,07\%$). Tajriba oxirida: $2,45 \pm 0,62$ ($V=25,06\%$). $t=0,34$; $p>0,05$. Variatsiya koeffitsienti: $28,07\%$ dan $25,06\%$ ga kamaydi. TG: Tajriba boshida: $2,27 \pm 0,67$ ($V=29,51\%$). Tajriba oxirida: $2,60 \pm 0,48$ ($V=18,46\%$). $t=2,26$; $p<0,05$.

Variatsiya koeffitsienti: $29,51\%$ dan $18,46\%$ ga kamaydi. NGda $t=0,34$; $p>0,05$ natijasi, ya'ni uzoq muddatli xotirada statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishlar mavjud emas. TGda $t=2,26$, $p<0,05$ natijasi statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishni ko'rsatadi. Bu TGda uzoq muddatli xotirangizning yaxshilanganini ko'rsatadi.

NGda variatsiya koeffitsientining kamayishi ($28,07\%$ dan $25,06\%$ ga) natijalarning kamroq farqlanishini, ya'ni ko'proq barqarorligini ko'rsatadi. TGda variatsiya koeffitsientining sezilarli kamayishi ($29,51\%$ dan $18,46\%$ ga) TGda uzoq muddatli xotiraning aniq va barqaror rivojlanganini anglatadi.

Tadqiqot natijalari 13–14 yoshli bokschilarning idrok aniqligi ko'rsatkichlari dinamikasini aniqlash maqsadida olib borildi. Quyidagi jadvalda nazorat guruhi (NG) va tajriba guruhi (TG) ishtirokchilarining tadqiqot boshida (TB) va tadqiqot oxirida (TO) aniqlangan idrok aniqligi ko'rsatkichlari, o'zgaruvchanlik koeffitsienti (V%) hamda statistik ahamiyat (t va p qiymatlari) aks ettirilgan (11-jadvalga e'tibor bering).

11-jadval

Nazorat va tajriba guruhlarida shug'ullanuvchi 13-14 yoshli bokschilarning idrok aniqligi ko'rsatkichlari dinamikasi (n=44)

Idrok turlari	Guruh/ mat-stat	TB	V%	TO	V%
Elementlar	NG	$3,17 \pm 0,37$	11,16	$3,42 \pm 0,75$	21,92
	TG	$3,14 \pm 0,24$	7,64	$4,15 \pm 0,74$	17,83
	t	0,37		2,42	
	P	$>0,05$		$<0,05$	
Bo'shliqlar	NG	$2,64 \pm 0,26$	9,84	$2,84 \pm 0,34$	11,97
	TG	$2,61 \pm 0,32$	12,26	$3,54 \pm 0,63$	17,79
	t	0,52		3,24	
	P	$>0,05$		$<0,01$	
Vaqt	NG	$2,12 \pm 0,18$	8,49	$2,50 \pm 0,35$	14
	TG	$2,14 \pm 0,15$	7	$3,15 \pm 0,41$	13
	t	0,31		2,37	
	P	$>0,05$		$<0,05$	

Tadqiqot boshida NG ishtirokchilarining idrok aniqligi ko'rsatkichlari $3,17 \pm 0,37$ bo'lib, bu o'rtacha darajada barqaror ($V=11,16\%$). Ko'rsatkichlarda

ozgina o'sish kuzatilgan ($3,42 \pm 0,75$), biroq o'zgaruvchanlik koeffitsienti oshishi ($V=21,92\%$) natijalar barqarorligining pasayganini ko'rsatadi. Hisoblangan t-qiymat ($0,37$) va $p > 0,05$ bo'lgani uchun o'zgarishlar statistik jihatdan ahamiyatga ega emas.

Tadqiqot natijalari 13–14 yoshli bokschilarning idrok aniqligi ko'rsatkichlarini rivojlantirishda tajriba guruhi uchun qo'llangan maxsus mashqlar majmuasi samaradorligini ko'rsatdi. Tajriba guruhi ishtirokchilarida idrokning barcha turlari bo'yicha ko'rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilangan, bu esa mashg'ulotlar jarayonida individual yondoshuv va maxsus usullarni qo'llashning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqotda 13-14 yoshli bokschilarning fikrlash turlarini tahlil qilish orqali ularning kognitiv qobiliyatlaridagi o'zgarishlarni aniqlash va shu asosda bokschilarning rivojlanish dinamikasini ta'riflash maqsad qilingan. Tadqiqotda mantiqiy va ijodiy fikrlash ko'rsatkichlari o'rganildi va guruhlar o'rtasidagi farqlar statistik tekshirildi. Ilmiy tadqiqotda olib borilgan tadqiqotlar sportchilarning aqliy rivojlanishini nazariy va amaliy jihatdan keng qamrab olishga harakat qildi (12-jadvalga e'tibor bering).

12-jadval

Nazorat va tajriba guruhlarda shug'ullanuvchi 13-14 yoshli bokschilarning fikrlash ko'rsatkichlari dinamikasi (n=44)

Fikrlash turlari	Guruh/ mat-stat	TB	V%	TO	V%
Mantiqiy	NG	$2,85 \pm 0,62$	21,75	$3,24 \pm 0,82$	25,30
	TG	$2,82 \pm 0,67$	23,75	$3,90 \pm 0,84$	21,53
	t	0,26		2,41	
	P	$>0,05$		$<0,05$	
Ijodiy	NG	$2,62 \pm 0,37$	14,12	$2,95 \pm 0,67$	22,71
	TG	$2,59 \pm 0,48$	18,53	$3,45 \pm 0,64$	18,55
	t	0,89		2,98	
	P	$>0,05$		$<0,01$	

Nazorat va tajriba guruhlarda shug'ullanuvchi 13-14 yoshli bokschilarning mantiqiy fikrlash natijalar: NG (Nazorat guruhi): $2,85 \pm 0,62$ (TB) va $3,24 \pm 0,82$ (TO). TG (Tajriba guruhi): $2,82 \pm 0,67$ (TB) va $3,90 \pm 0,84$ (TO)

Mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlari bo'yicha Tajriba guruhidagi bokschilarning statistik jihatdan muhim o'zgarishlarini kuzatish mumkin. TG guruhidagi bokschilarda (1,08) farq kuzatilgan bo'lib, bu ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatining yaxshilanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, t-testi ($t=2,41$; $p < 0,05$) bu farqning statistik jihatdan ahamiyatligini isbotlaydi. Bu natijalar Tailor va boshqalarning fikrlari bilan ham mos keladi, ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki,

ta'limdagi yangi metodikalar, xususan, interaktiv mashg'ulotlar, sportchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tajriba guruhidagi ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, tajriba davomida bokschilardagi mantiqiy fikrlash darajasi oshgan. Bu yosh sportchilarning muhim qarorlarni qabul qilish jarayonida yordam beradi, chunki boks janrlarida mantiqiy fikrlash, jumladan, strategiyani aniqlash va taktik qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Boks bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda, xususan, Dorn (2014) va Shvars (2017) ta'kidlaganidek, mantiqiy fikrlash sportchilarning taktik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ularning natijalariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.

XULOSALAR

Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili hamda tadqiqotning barcha bosqichlarida amalga oshirilgan kuzatuv va tajribalarga asoslangan holda, mazkur ish doirasida muhim ilmiy xulosalar shakllantirildi. Ushbu xulosalar tadqiqot obyekti bo'yicha mavjud nazariy va amaliy manbalarni chuqur o'rganish, shuningdek, empirik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali asoslandi va dalillandi. Bu esa olib borilgan ilmiy izlanishlarning puxta va tizimli ravishda olib borilganini, natijalar esa metodik jihatdan ishonchli va asosli ekanini ko'rsatadi:

1. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirishga doir metodik yondashuvlar bo'yicha ko'plab ilmiy-uslubiy tadqiqotlar olib borilgan. Bunday izlanishlar turli sport turlari doirasida keng o'rganilgan bo'lsa-da, aynan boks sporti, xususan 13-14 yoshli bokschilarning jismoniy va psixologik rivojlanish xususiyatlarini qamrab olgan ilmiy ishlar nisbatan kam uchraydi.

2. Tahlil qilingan manbalar asosida aniqlanishicha, bokschilarning yillik jismoniy tayyorgarligi bosqichma-bosqich rivojlanib boradi va bu jarayonni metodik boshqarish orqali yanada samarali yo'lga qo'yish mumkin. Shuningdek, psixologik tayyorgarlik komponentlari - xotira, idrok, fikrlash kabi omillar ham sportchining umumiy natijalarida muhim o'rin tutadi.

3. Tegishli tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, 13-14 yoshli bokschilarning xotira ko'rsatkichlari dinamikasi doimiy mashg'ulotlar ta'sirida yaxshilanishga moyildir. Bu yoshdagi sportchilarning idrok aniqligi ham shaxsiy tajriba ortishi, e'tiborni boshqarish va tez qaror qabul qilish ko'nikmalari orqali rivojlanadi. Fikrlash ko'rsatkichlarining izchil o'sib borishi esa sport mashg'ulotlarining intellektual talablari bilan bog'liq bo'lib, bu omillarni kompleks baholash muhim hisoblanadi.

4. Yosh bokschilarning jismoniy rivojlanishi, funksional tayyorgarlik darajasi, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik (UJT va MJT) ko'rsatkichlarining o'zgarishini baholash maqsadida o'tkazilgan tajriba natijalari quyidagi ko'rinishda aks etdi:

- boshlang'ich holatda: NG ($8,15 \pm 0,84$ s) va TG ($8,13 \pm 0,92$ s) o'rtasida farq mavjud emas ($p > 0,05$);. Tajriba davridan so'ng: TG natijalari ($7,14 \pm 0,81$ s) NGga ($8,02 \pm 0,64$ s) nisbatan sezilarli darajada yaxshilangan ($p < 0,05$);. Chaqqonlik boksda bokschining tez harakatlanish, harakat holatini o'zgartirish va himoyadan hujumga

tez o'tish qobiliyatini anglatadi. Moksimon yugurish ko'rsatkichlari boksdagi taktik harakatlar sifatini oshirish uchun muhimdir. TGdagi ko'rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, ishlab chiqilgan metodika bokschilarning harakat chaqiligini rivojlantirishda samarali bo'lib, ularning musobaqadagi raqobatbardoshligini oshiradi.

5. 12 daqiqa davomida yugurish testi bokschilarning chidamlilik darajasini baholash uchun o'tkazildi. Chidamlilik boksdagi juda muhim, chunki u sportchining to'liq raund davomida yuqori harakat faolligini saqlab qolishiga yordam beradi. Quyida natijalar tahlili va ularning sport faoliyatidagi ahamiyati bayon etilgan:

- boshlang'ich ko'rsatkichlar: NG: $2308,08 \pm 11,35$ m ($V=9,18\%$). TG: $2310,10 \pm 14,24$ m ($V=8,70\%$). Test statistikasi: $t=0,31$; $p>0,05$. (Guruhlar o'rtasida sezilarli farq aniqlanmadi). Tajriba davridan so'ng: NG: $2332,32 \pm 21,2$ m ($V=9,10\%$). TG: $2454,54 \pm 21,1$ m ($V=8,61\%$). Test statistikasi: $t=2,97$; $p<0,05$. (TG natijalari NGga nisbatan sezilarli darajada yaxshilangan).

6. 13-14 yoshli bokschilarda ko'rish xotirasini tahlil qilganda: Nazorat guruhi: tajriba boshida: $3,12 \pm 0,42$ ($V=13,46\%$). Tajriba oxirida: $3,62 \pm 0,36$ ($V=9,94\%$). $t=0,84$; $p>0,05$. Variatsiya koeffitsienti: $13,46\%$ dan $9,94\%$ ga kamaydi. Tajriba guruhi: tajriba boshida: $3,14 \pm 0,45$ ($V=14,33\%$). Tajriba oxirida: $4,15 \pm 0,34$ ($V=8,20\%$). $t=3,14$; $p<0,01$.

7. 13-14 yoshli bokschilarda mexanik xotirasining natijalarini tahlil qilamiz: NG: Tajriba boshida: $2,56 \pm 0,24$ ($V=9,34\%$). Tajriba oxirida: $2,82 \pm 0,34$ ($V=12,05\%$). $t=0,87$; $p>0,05$. Variatsiya koeffitsienti: $9,34\%$ dan $12,05\%$ ga ko'tarildi. TG: Tajriba boshida: $2,55 \pm 0,32$ ($V=12,54\%$). Tajriba oxirida: $2,98 \pm 0,37$ ($V=12,41\%$). $t=2,37$; $p<0,05$. Variatsiya koeffitsienti: $12,54\%$ dan $12,41\%$ ga kamaydi. NGda $t=0,87$; $p>0,05$ natijasi kuzatildi, bu degani natijalar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud emas. Ya'ni, NGda mexanik xotirasining yaxshilanishi kamroq yoki boshqa omillar ta'sirida kam bo'ldi.

8. 13-14 yoshli bokschilarda mantiqiy xotirasining natijalarini tahlil quyidagicha bo'ldi. NG: Tajriba boshida: $2,55 \pm 0,26$ ($V=10,19\%$). Tajriba oxirida: $2,90 \pm 0,34$ ($V=11,74\%$). $t=0,67$; $p>0,05$. Variatsiya koeffitsienti: $10,19\%$ dan $11,74\%$ ga ko'tarildi. TG: tajriba boshida: $2,54 \pm 0,27$ ($V=10,62\%$). Tajriba oxirida: $3,37 \pm 0,45$ ($V=13,35\%$). $t=3,07$; $p<0,01$. Variatsiya koeffitsienti: $10,62\%$ dan $13,35\%$ ga oshdi. NGda $t=0,67$; $p>0,05$ natijasi kuzatildi, bu degani natijalar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud emas. Ya'ni, NGda mantiqiy xotirasining o'zgarishlari statistik jihatdan mavjud emas. TGda esa $t=3,07$; $p<0,01$ natijasi statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishni ko'rsatadi. Bu TGda mantiqiy xotirasining sezilarli darajada yaxshilanganini va bu natija tajribaga asoslangan metodikalarning samarasini ko'rsatadi.

9. Tadqiqot boshida TG ishtirokchilarining idrok aniqligi ko'rsatkichlari $3,14 \pm 0,24$ bo'lib, yuqori darajada barqaror ($V=7,64\%$). Tadqiqot oxirida ko'rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilangan ($4,15 \pm 0,74$), o'zgaruvchanlik koeffitsienti oshgan bo'lsa-da ($V=17,83\%$), natijalar ancha sezilarli. Hisoblangan $t=2,42$ va $p<0,05$ bo'lgani uchun o'zgarishlar statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, tajriba guruhi ishtirokchilarida maxsus mashqlar majmuasini joriy etish natijasida idrok aniqligi

ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan. Bu esa individual va yo'naltirilgan mashg'ulot dasturlari 13–14 yoshli bokschilarning psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Nazorat guruhida esa ko'rsatkichlarning kam o'zgartirish standart mashg'ulotlar ta'sirining chegaralanganligini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotlar asosida shakllangan metodik yondashuvlar yosh bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini uzviy holda rivojlantirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa sport mashg'ulotlarining nafaqat jismoniy, balki aqliy va psixologik salohiyatni ham shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi.

AMALIY TAVSIYALAR

13–14 yoshli bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini kompleks shakllantirishda qo'llaniladigan metodikalar mashg'ulot jarayoniga moslashtirilgan tavsiya va takliflarga asoslanadi. Mashg'ulotlar davomida sportchilarning yillik jismoniy tayyorgarlik darajasini muntazam tahlil qilish, ularning xotira, idrok aniqligi va fikrlash ko'rsatkichlari dinamikasini hisobga olgan holda metodik yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Taklif qilinayotgan metodik tavsiyalar aynan shu yosh toifasidagi sportchilarning yosh xususiyatlari va psixologik holatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ularning jismoniy va psixologik tayyorgarligini izchil va samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. 13–14 yoshli bokschilarning mashg'ulot jarayonidagi harakat faolligini oshirish, ularning jismoniy va psixologik tayyorgarligini yanada samarali yo'nalishda shakllantirish uchun mos metodik yondashuvlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sportchilarning yillik jismoniy tayyorgarligi bosqichma-bosqich rivojlanib boradi, bu esa mashg'ulotlarning rejali, maqsadli va tizimli tashkil etilishini talab qiladi. Shu bilan birga, xotira, idrok aniqligi va fikrlash jarayonlarining dinamikasi ham sportchining umumiy tayyorgarlik darajasi va musobaqa faoliyatida muhim omil hisoblanadi.

2. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy-izlanishlar sportchilarning psixologik salohiyatini yanada chuqurroq o'rganishga zamin yaratgan bo'lib, ayrim mutaxassislar o'z tadqiqotlarida mashg'ulot metodikasini takomillashtirish borasida muayyan tavsiyalar bergan. Biroq aynan boks sport turi doirasida, ayniqsa o'smir yoshdagi sportchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishiga yo'naltirilgan maxsus yondashuvlar amaliyotda yetarli darajada qo'llanilmagan. Shu sababli, mavjud metodikalarni yangilash, takomillashtirish hamda ularni amaliy mashg'ulotlarga tatbiq etish 13–14 yoshli bokschilarning har tomonlama o'sishi va sport natijalarining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

3. Yosh sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini samarali shakllantirish uchun ularning individual va yosh xususiyatlariga mos bo'lgan jismoniy mashqlarni psixologik rivojlanish komponentlari bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, 13–14 yoshli bokschilar bilan olib borilgan mashg'ulotlarda faqatgina jismoniy yuklama emas, balki fikrlash, xotira, idrok aniqligi kabi psixologik ko'rsatkichlarni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ham o'z samarasini beradi.

4. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jismoniy tayyorgarlikning yillik dinamikasi bilan birga psixologik tayyorgarlik omillarining izchil rivoji sportchilarni har tomonlama takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, trening jarayonida jismoniy mashqlar va psixologik tayyorgarlikka yo'naltirilgan mashg'ulot uslublarini birgalikda qo'llash tavsiya etiladi.

5. 13–14 yoshli bokschilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini rivojlantirishda kompleks yondashuv asosida shakllantirilgan metodika yuqori natijalarga erishishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

6. Hozirgi bosqichda 13–14 yoshli bokschilarning tayyorgarlik jarayonida qo'yilgan maqsad va vazifalarni samarali hal etish uchun mashg'ulotlarga yo'naltirilgan, maqsadli metodik yondashuvlarni tatbiq etish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, sportchilarning jismoniy holatini yillik dinamik asosda rivojlantirish, ularning xotira, idrok aniqligi va fikrlash faoliyati kabi psixologik ko'rsatkichlarini takomillashtirish bilan bir qatorda, mashg'ulot samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik vositalarni qo'llash zarur.

7. Sportchilarning yoshiga mos, bosqichma-bosqich rivojlanishga yo'naltirilgan mashg'ulot tarkibiy qismlari orqali ularning umumiy va psixologik tayyorgarligi uzviy bog'langan holda shakllantiriladi. Shu boisdan, o'quv-mashg'ulot jarayoniga samarali metodik yondashuvlarni tatbiq etish, tayyorgarlik samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ФИЗИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

ГАФФОРОВ НОСИРЖОН НОДИРЖОН УГЛИ

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ
ПОДГОТОВКИ БОКСЕРОВ 13-14 ЛЕТ**

**13.00.04 – Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки,
оздоровительной и адаптивной физической культуры**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Ташкент - 2025

Тема диссертации доктора философии по педагогическим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/Ped6733

Докторская диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте физической культуры и спорта.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте научного совета (www.jtsiti.uz) и Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziyo.net)

- Научный руководитель:** **Тажибаев Сойиб Самижонович**
доктор педагогических наук (DSc), профессор
- Официальные оппоненты:** **Иштаев Жавлон Мавлонбоевич**
доктор педагогических наук (DSc), профессор
Усмонов Мансур Курбонмуротович
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
доцент
- Ведущая организация:** **Самаркандский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится «__» «_____» 2025 г. в _____ часов на заседании научного совета DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 при Научно-исследовательском институте физической культуры и спорта по адресу: 111709, город Ташкент, Яшнабадский район, улица Янги Узбекистон, Олимпийский городок. Тел.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, факс: (0-370)-717-17-76, веб-сайт: www.djtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. Государственная академия спорта Узбекистана, корпус «Административный корпус», 1 этаж, 146-аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована за номером _____), по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Спортивная, дом 19. Тел: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76.

Автореферат диссертации разослан “_____” _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки № _____ от “___” _____ 2025 года)

Ф.А.Керимов
Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.п.н., профессор

Д.Я.Эгамов
Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.ф.п.н. (PhD)

О.Ж.Дадабаев
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению учёных
степеней, д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире проведено множество научных исследований, направленных на совершенствование подготовки боксёров в учреждениях сферы физической культуры и спорта. В частности, при подготовке квалифицированных спортсменов проводятся исследования, направленные на формирование личностных и профессиональных качеств, построение педагогической и психологической модели, а также развитие индивидуальных дидактических, коммуникативных и управленческих компетенций. Также научно-методические основы профессиональной деятельности спортсменов, систем управления, педагогического мастерства в спорте, овладения спортивной техникой и методами обучения, способности к рациональной организации тренировочного процесса, самоконтролю и предварительной оценке результатов, а также совершенствование физической и психологической подготовки будущих боксёров выступают одним из приоритетных направлений современных научных исследований.

В мире всё более актуальным становится комплексный подход к развитию физической и психологической подготовки юных боксёров, а также к совершенствованию их педагогического мастерства. В частности, повышение профессиональной компетентности тренеров, работающих с молодыми спортсменами, углубление их учебно-методических знаний и развитие психологической устойчивости выступают решающими факторами всестороннего формирования личности спортсмена. Также в процессе подготовки спортсменов требуется организация обучения на основе современных технологий, внедрение передовых педагогических и психологических методик, а также развитие у них навыков психологической устойчивости, повышение мотивации и формирование индивидуально ориентированного подхода, учитывающего особенности каждого спортсмена. В свою очередь, способствует более точной оценке физических возможностей юных боксёров, формированию психической устойчивости и повышению эффективности в процессе их соревновательной подготовки. В связи с этим, разработка и внедрение методических и практических рекомендаций для тренеров, направленных на оптимизацию подготовки спортсменов, является актуальным направлением современной спортивной науки.

В нашей республике придается приоритетное значение физической культуре и спорту, особенно развитию и популяризации детского спорта. Определены такие задачи, как «повышение и реализация творческого и интеллектуального потенциала молодого поколения, формирование здорового образа жизни среди детей и молодежи, их широкое привлечение к физической культуре и спорту»¹. В рамках реализации широкомасштабных работ,

¹ Указ Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева от 5 марта 2018 года № ПФ-5368 «О мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления в области физической культуры и спорта» <http://lex.uz>

определены конкретные задачи, направленные на «формирование здорового образа жизни в нашем обществе, создание условий, соответствующих требованиям времени, для регулярных занятий физической культурой и массовым спортом населения, особенно молодёжи, а также дальнейшее развитие физической культуры и массового спорта». Вместе с тем, частично освещены такие вопросы, как творческие компоненты деятельности боксёров, их гармония с общечеловеческими ценностями, духовно-нравственные отношения в профессиональной деятельности, влияние личных и специальных способностей на эффективность спортивной деятельности, значение межличностных отношений в тренировочном процессе, а также особенности взаимодействия между тренером и спортсменом. Важное значение имеет коренное совершенствование социального содержания деятельности боксёров, методики их физической и психологической подготовки.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных Указами Президента Республики Узбекистан № ПФ-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года, № ПФ-5368 «О мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления в сфере физической культуры и спорта» от 5 марта 2018 года, № ПФ-5924 «О мерах по дальнейшему совершенствованию и популяризации физической культуры и массового спорта» от 24 января 2020 года и другими нормативно-правовыми актами данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В нашей стране многими исследователями и учеными проведены значительные научные изыскания, посвящённые изучению физической и психологической подготовки спортсменов, их тренировочной компетентности, личностных качеств, а также научно-методических основ подготовки спортсменов. При этом основное внимание уделялось педагогическим и психологическим аспектам подготовки спортсменов в рамках тренировочной деятельности. Среди исследователей и учёных такими, как Е.Г.Гозиев, З.Г.Гаппаров, М.М.Маматов и Ю.Н.Машарипов уделили значительное внимание изучению психологических аспектов рассматриваемой проблемы, а также воздействию факторов соревновательной среды на деятельность спортсменов. Кроме того, вопросы совершенствования Государственных образовательных стандартов и учебных программ по физической культуре исследовались Р.Д. Халмухамедовым, Ф.А. Керимовым, Ш.Х. Хонкелдиевым, А. Абдуллаевым и Р.С. Саломовым,

С.С.Таджибаевым², организационно-методические аспекты совершенствования требований государства к содержанию и качеству повышения квалификации преподавателей физической культуры рассмотрены в трудах Т.С.Усманходжаева и А.Н. Абдиева, а также, организационно-педагогические условия развития профессионального мастерства специалистов в области физической культуры и спорта в педагогическом аспекте достаточно подробно исследованы Н.Т. Тухтабоевым.

Ведущие педагоги и психологи стран Содружества Независимых Государств такие, как И.П.Дегтярев, Т.В.Корнилова, С.А.Кузнецов, И.С. Дятловская, А.А. Деркач, А.А. Исаев, Я.А. Корх, А.А. Лалаян, Е.П. Ильин, Г.В. Ложкин, М.В. Саная³ и другие провели научные исследования, посвящённые деятельности спортсменов и психологическим особенностям личности спортсмена. На основе указанных исследований всесторонне изучены такие вопросы, как тренировочная компетентность, специфические качества спортсменов, их психологическая подготовка, личностные особенности и физические качества, психологическая структура педагогической деятельности, проектировочные способности, профессионально значимые качества, индивидуальный стиль тренировочной деятельности, типы управления, педагогическое мастерство в спорте, а также его педагогические и психологические аспекты.

В отличие от вышеуказанных работ, значительные исследования проблемы деятельности отражены в научных концепциях А.Г. Асмолова, Е.А. Климова, А.А. Крилова, А.Н. Леонтьева, Г.С. Никифорова, Г.В. Суходольского и В.Д. Шадрикова. Вопросы, связанные с анализом понятия личности, получили развитие в трудах Б.Г. Ананьева, В.Л. Маришука, Б.С. Мерлина, Ю.П. Платонова, С.Л. Рубинштейна и В.В. Столина. Психологические аспекты тренерской деятельности в юношеском спорте глубоко изучены в исследованиях Е.С. Ричарда, Л. Франка, Лью Харди, Грэма Джонса, Дэниела Гоулда, Сьюзан Хэнрахан и Мэтта Б. Андерсена⁴

